

## TA'LIMDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV HAMDA UNI TASHKIL ETISHDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR

**Niyozxon Ilyozxon o'g'li Ergashov**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

**Jandarbek Dayrabay o'g'li Atenov**

Toshkent amaliy fanlar universiteti o'qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Maqolada kompetensiyaviy yondashuvning ta'lim jarayonini takomillashtirishga, ko'nikma va malakalarni egallash darajasini oshirishga, shuningdek, ularning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va jamoada ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishga ta'sir hamda olimlarning kompetensiyaviy yondashuv bo'yicha olib borgan ishlari, kompetensiyaviy yondashuvni tashkil etishdagi muammolar va ularning yechimlari ko'rsatiladi.

**Kalit so'zlar:** Kompetensiyaviy yondashuv, ta'lim tizimi, ta'lim jarayoni, bilim, ko'nikma, malaka, mustaqil fikrlash.

### KIRISH

XXI asrda globalizatsiya, texnologiya taraqqiyoti va jamiyatning doimiy o'zgarishi ta'lim tizimiga yangi talablar qo'ymoqda. Zamonaviy ta'lim tizimi shaxsning bilim, ko'nikma va qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birga, uni hayotning turli sohalarida muvaffaqiyatli ishlashga tayyorlashni maqsad qilgan. Ushbu maqsadga erishishda kompetensiyaviy yondashuv muhim rol o'ynaydi. Bilamizki ta'lim-tarbiya masalasi necha ming yillik asosga ega bo'lgan holda, muttasil tarzda zamon talablariga moslashib, fan-texnika yutuqlariga hamohang ravishda takomillashib boradigan jarayon hisoblanadi. Masalan, XX asr oxiri, XXI asr boshida dunyo ilm-fani va amaliyotida kompetensiyaviy yondashuv yuzaga keldi. Bunga sabab, mehnat bozoridagi dinamik o'zgarishlar, insonning nafaqat bilim va ko'nikmalari balki, shaxsiy fazilatlariga bo'lgan talablarning ortishidir. So'ngi o'n yillikda ta'lim samaradorligini oshirish borasida olib borilayotgan ishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, aksariyat qilingan ishlar kompetensiya va kompetentlik tushunchalari bilan bog'liq. Mazkur tushunchalar XX asrning 70-yillarida muomalaga kirib keldi. Bunda, ishbilarmonlik munosabatlarida Amerika Qo'shma Shtatlarida [1,2] qo'llanilgan kompetensiya so'zining mazmuni kasbiy bilim va ko'nikmalarga qarama-qarshi qo'yilib, "istalgan kasbiy faoliyatning mustaqil universal tashkil etuvchisi sifatida"

qaralgan. Shunday qilib, kompetensiya muammosi ta'lim sohasiga kirib keldi va vaqt o'tishi bilan unda etakchi o'rinni egalladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Kompetensiyaviy yondashuvning rivojlanish tarixi, asosiy printsiplari va amaliy qo'llanilishi bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari, maqolalar, kitoblar va tadqiqotlar tahlil qilingan. Kompetensiya va kompetentlik tushunchalari ko'pincha bir-biriga yaqin ma'noda ishlatiladi, ammo ular o'rtasida farq bor. "Kompetensiya" - bu shaxsning ma'lum bir sohada bilimlar, ko'nikmalar, qobiliyatlar va qadriyatlarni birlashtirib, amaliy vaziyatlarda muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyatidir. "Kompetentlik" esa kompetensiyaning shaxs tomonidan o'zlashtirilgan va amalga oshiriladigan darajasini ifodalaydi. Kompetensiya va kompetentlik tushunchalari yuzasidan ko'plab olimlar, mutaxassislar fikr bildirishgan. Masalan, J.Ravenning 1984-yilda chop etilgan "Zamonaviy jamiyatda kompetentlik" nomli asarida: "U juda ko'p miqdordagi komponentlardan tashkil topgan bo'lib, ulardan ko'pchiligi bir-biriga nisbatan mustaqildir, ayrim komponentlar ko'proq kognitiv sohaga tegishlidir, boshqalari – emotsional sohaga tegishli. Bu komponentlar o'z-o'zini samarali boshqarishda bir-birini to'ldirishi mumkin" degan fikrni ilgani suradi. XXI asrda ta'lim bo'yicha xalqaro Yevropa kengashida Jak Delor "Ta'lim: yashirin xazina" nomli dokladida "Ta'lim tayanadigan to'rtta ustunni" ta'riflab beradi: bular bilishni o'rganish; bajarishni o'rganish; birgalikda yashashni o'rganish; yashashni o'rganish. Jak Delor fikricha, bajarishni o'rganish deyilganda, nafaqat kasbiy malakaga ega bo'lish, balki keng ma'noda kompetent bo'lish ya'ni, guruhlarda ishlay olish va ish paytida yuzaga keladigan juda ko'p murakkab vaziyatlardan muvaffaqiyatli chiqib keta olish nazarda tutiladi. Shuni ta'kidlash joizki, "kompetentlik" tushunchasi bilan birgalikda, uning sinonimi sifatida "malakalar bazasi" termini ishlatilgan hollar ham mavjud. B.Oskarson [3] fikriga ko'ra, ular keng qamrovli, maxsus kasbiy xislatlariga qo'shimcha ravishda rivojlanadi. Bunday tayanch kompetensiyalar: jamoada samarali ishlash, rejalashtirish, muammolarni echish, ijod qilish, peshqadam bo'lish, tadbirkorlik, tashkilotchilik va kommunikativ ko'nikmalarni o'z ichiga oladi.

2000-yildan boshlab kompetensiyaviy yondashuv kasbiy ta'lim, umumta'lim fanlari standartlari mazmuniga kiritila boshlandi. Hozirda "Yevropa uchun tayanch kompetensiyalar" deb nomlangan Yevropa kengashi simpoziumida belgilangan tayanch kompetensiyalarni keltirib o'tamiz:

**O'rganishi kerak:** tajribadan foydali biror narsani chiqarib olishni, o'z bilimlari orasidagi o'zaro aloqani tashkil qilish va

ularni tartiblashtirishni, o'zining shaxsiy o'rganish usullarini tashkil qilish (o'rnatish) hamda muammolarni yecha olishni.

**Izlash:** mustaqil bilim olish bilan shug'ullanish, turli ma'lumotlar bazasini izlash, tevarak-atrofnii o'rganish (surishtirish), ekspertdan maslahat olish, zaruriy ma'lumotlar olish, hujjatlar bilan ishlash va ularni turkumlash (klassifikatsiyalash).

**O'ylash:** o'tgan va hozirgi voqealar orasidagi o'zaro bog'liqlikni topmoq, jamiyat rivojlanishining u yoki bu aspektiga tanqidiy yondashmoq, murakkablik va o'ziga bo'lgan ishonch yo'qolishiga qarshi turmoq, bahslashuvlarda o'z pozitsiyasini egallash va shaxsiy nuqtai nazariga ega bo'lmoq, o'qiyotgan va ishlayotgan joydagi siyosiy va iqtisodiy muhitning muhimligini anglash, salomatlik, iste'mol qilish, tasviriy san'at va adabiy asarlarni baholay bilish.

**Hamkorlik qilish:** guruhda ishlash va hamkorlik qila olish, qarorlar qabul qilish, anglashilmovchilik va janjallarni bartaraf etish, kelisha olish, shartnomalarni ishlab chiqish va bajarish.

**Ishga kirishish:** loyihada qatnashish, javobgarlikni olish, guruhga yoki jamoaga kirish hamda o'z hissasini qo'shish. hamkor ekanligini isbotlash, o'z ishini tashkil qila bilish, hisoblash va modellashtirish asboblaridan foydalana bilish.

**Ko'nikish:** yangi axborot va kommunikasiya texnologiyalaridan foydalana olish; tez o'zgarishlar oldida moslashuvchanligini isbotlash; yangi yechimlarni topa bilish.

Kompetensiyaviy yondashuvning keyingi bosqichi kasbiy ta'lim, umumta'lim fanlari standartlari mazmuniga kiritish bilan bog'liq bo'lib, 2006-yil 18 dekabrda Yevropa parlamenti va Kengashi uzluksiz ta'lim uchun quyidagi tayanch kompetensiyalarni tavsiya qildi:

- 1) O'z ona tilida muloqat qila olish;
- 2) Chet tilida muloqat qila olish;
- 3) Matematik kompetentlik hamda fan va texnika sohasidagi asosiy kompetensiyalar;
- 4) Raqamli kompetentlik;
- 5) O'qishni o'rganish;
- 6) Ijtimoiy va fuqarolik kompetensiyasi;
- 7) Tadbirkorlik va tashabbuskorlik tuyg'usi;
- 8) Madaniyatdan xabardor bo'lish va uni ifodalash.

Qabul qilingan kompetensiyalarda ularning psixologik, metodologik va mazmuniy tomonlari ishlab chiqilgan, tegishli tasviyalar berilgan bo'lsada, ularga berilgan ta'riflar juda keng va rang-barangligi, shu bilan birga ularning barchasi ham ma'lum yo'nalishlarni qamrab olganligi bilan ham ahamiyatlidir. Xususan, V.I.Baydenko kompetensiya



tushunchasiga beriladigan ta'rifda ham muammo borligini ko'rsatadi[4]. Mazkur komponentlar to'plami insonga maqsadni belgilash, muaffaqiyatli ravishda ularga erishish hamda belgilangan faoliyat sohasida rivojlanish imkonini beradi. Shunga ko'ra quyidagi xulosaga kelish mumkin. Kompetensiya bu ma'lum soha yoki yo'nalishdagi tajriba va bilimlar, faoliyatni amalga oshirishga bo'lgan tayyorlikning namoyon bo'lishi hamda shaxsning turli nostandart holatlarda muvaffaqiyatli harakat qila olishidir. Kompetensiya tushunchasiga berilgan mazkur ta'rif, shaxsning o'qish jarayonida egallagan bilim va tajribasini ko'rsatadi.

A.I.Subetto o'zining "Kompetensiyaviy yondashuv ontologiyasi va epistemologiyasi klassifikatsiyasi va kvalimetriyasi" nomli kitobida[5] Rossiyada olib borilgan tadqiqotlar haqidagi ma'lumotlarida, mazkur an'ana maktab ta'limida asos sifatida olinmaganligi va o'quv standartlari, dasturlari va h.k.lar amalda qo'llanilmaganligini ta'kidlaydi. Bundan, kompetensiyaviy yondashuv asosida mustaqil ravishda ta'lim natijalariga erishish konsepsiyasi shakllantirilib, XXI asrdan boshlab o'z rivojlanishiga erisha boshladi, degan xulosaga kelish mumkin.

O'zbekistonlik olimlar ham kompetensiyaviy yondashuvni mahalliy kontekstga moslashtirish bo'yicha muhim tadqiqotlar olib bormoqdalar. To'raqulov, A., Abdurahmonov, A., Xudoyberganov, B., Qo'chqorov, A. va boshqa ko'plab olimlarimiz o'z tadqiqotlarida O'zbekiston ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlarini, milliy qadriyatlarni va amaliy sharoitlarni hisobga olib, kompetensiyaviy yondashuvni mahalliy kontekstga moslashtirishga harakat qilmoqdalar. Ularning tadqiqotlari nafaqat yurtimizda balki dunyo ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvni qo'llanilishini yaxshilashga qaratilgan.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Kompetensiyaviy yondashuvni qanchalik anglamaylik va tushinib yetmaylik uni amalga oshirishda ba'zi muammolar yuzaga kelaveradi. Ushbu muammolardan ba'zilarini quyida ko'rib chiqaylik.

- O'qituvchilarning tayyorgarligi: O'qituvchilarni kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitish, yangi pedagogik texnologiyalarni o'rgatish va ularni qo'llashga rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega.

- O'quv dasturlari va o'quv materiallari: O'quv dasturlari va o'quv materiallari kompetensiyaviy yondashuv talablariga mos ravishda qayta ko'rib chiqilishi kerak.

- Baholash tizimi: O'quvchilarning kompetensiyalarni o'zlashtirish darajasini baholash uchun yangi usullarni joriy etish zarur.

- Moddiy-texnik bazasi: O'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnik bazani yaratish muhim ahamiyatga ega.



- O'quvchilarning motivatsiyasi: O'quvchilarni o'zlashtirgan bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo'llashga, muammolarni hal qilishga va ijod qilishga rag'batlantirish kerak.

Yuqoridagi muammolar albatta kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim jarayonini mukammal va sifatli tashkil etishga bir muncha halal beradi. Ushbu muammolarni hal etishga esa biz quyidagicha yechimlarni taklif beramiz:

- O'qituvchilarni qayta tayyorlash: O'qituvchilarni kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitish va ularga yangi pedagogik texnologiyalarni o'rgatish uchun maxsus dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish kerak.

- O'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqish: O'quv dasturlarini kompetensiyaviy yondashuv talablariga mos ravishda qayta ko'rib chiqish va o'quvchilarning kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv materiallari va usullarini tanlash kerak.

- Baholash tizimini takomillashtirish: O'quvchilarning kompetensiyalarni o'zlashtirish darajasini baholash uchun yangi usullarni joriy etish va baholash tizimini takomillashtirish kerak.

- Moddiy-texnik bazani mustahkamlash: O'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnik bazani yaratish va mustahkamlash kerak.

- O'quvchilarning motivatsiyasini oshirish: O'quvchilarni o'zlashtirgan bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo'llashga, muammolarni hal qilishga va ijod qilishga rag'batlantirish uchun turli usullarni qo'llash kerak.

## XULOSA

Kompetensiyaviy yondashuv ta'lim tizimida muhim o'rin tutadi. Uning samarali amalga oshirilishi uchun o'qituvchilarning tayyorgarligi, o'quv dasturlari, baholash tizimi, moddiy-texnik bazasi va o'quvchilarning motivatsiyasi kabi muammolarni hal qilish zarur. Mahalliy va xorij olimlarning tadqiqotlari va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash orqali kompetensiyaviy yondashuv ta'lim tizimini yanada sifatli va samarali qilishga yordam beradi.

## REFERENCES

1. Зимняя И.А. Компетентностный подход. Каково его место в системе современных подходов к проблемам образования? (теоретико-методологический аспект) // Высшее образование сегодня. – 2006. – № 8. – С. 20–26.

2. Зеер Э.Ф., Сыманюк, Э.Э. Компетентностный подход к модернизации профессионального образования // Высшее образование в России. – 2005. – № 4. – С. 23–30.
3. Mirzaxmedov B. Fizikadan muammoli tajriba bajarishda o‘quvchi o‘quv ijodiy faoliyati va uni boshqarish texnologiyasi // O‘zMU xabarлари. – Toshkent, 2007. – В. 45-53
4. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. -М.: Педагогика, 1989. – 199 с.
5. Кисриева Ф.У. Формирование ключевых компетенций младших школьников в инновационной деятельности: автореф ... дис. кан. пед. наук. -Махачкала, 2012. – 22 с.
6. То‘raqulov, A. “O‘zbekiston ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning qo‘llanilishi”. O‘zbekiston ta’lim jurnali, 2020, 15-22 b.
7. Abdurahmonov, A. “Kompetensiyaviy yondashuvning milliy qadriyatlarga moslashtirilishi”. Pedagogika va psixologiya, 2021, 33-40 b.

